



FUQAROLIK HUQUQIDA HADYA SHARTNOMASINING HUQUQIY TABIATI VA AHAMIYATI

Ibragimova Munisa Xakim qizi

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi

Tel: +9998938561148

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17906268>

ARTICLE INFO

Received: 1st December 2025

Accepted: 2nd December 2025

Published: 12th December 2025

KEYWORDS

Hadya shartnomasi, Fuqarolik huquqi, Beg'araz bitim, Mulkiy munosabatlar, Huquqiy tartibga solish, Taraflarning huquq va majburiyatlari, Mulk huquqi, Shartnoma erkinligi, Huquqiy ishonch, Ijtimoiy ahamiyat, Mehr-oqibat, Huquqiy madaniyat, Adolat tamoyili, Huquqiy barqarorlik, Mulkiy manfaatlarni himoya qilish.

ABSTRACT

Ushbu ishda hadya shartnomasining fuqarolik huquqi tizimidagi o'rne, uning huquqiy mohiyati va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Hadyaning beg'arazlik tamoyiliga asoslanishi, taraflarning huquq va majburiyatlari, shartnomani tuzish, bajarish hamda bekor qilish tartiblari yoritiladi. Shuningdek, hadya shartnomasining ijtimoiy va huquqiy ahamiyati, mulkiy munosabatlarni tartibga solishdagi roli hamda fuqarolik muomalasidagi insoniy qadriyatlarni mustahkamlashdagi o'rne ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijasida hadya shartnomasi fuqarolik huquqining barqaror institutlaridan biri sifatida shaxslar o'rtasida huquqiy ishonchni mustahkamlash va mulkiy manfaatlarni himoya qilishga xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kirish

Hadya shartnomasi yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 31-bobi "Hadya" deb nomlanib, uning 502–511-moddalarida hadya shartnomasining shakli, tuzilishi, bekor qilinishi, hadya bo'yicha vorislik va xayr-ehson shaklidagi hadyalar haqida batafsil normalar belgilangan. Mazkur shartnomaga ko'ra hadya qiluvchi boshqa shaxsga biror ashyoni tekin mulk sifatida beradi yoki buni kelgusida berish majburiyatini oladi. Shuningdek, u hadya oluvchiga yoki uchinchi shaxs foydasiga mulkiy huquqni (talabni) o'tkazadi yoki o'tkazish majburiyatini olishi, yoxud uni o'z oldidagi mulkiy majburiyatdan ozod qilishi yoki bunday ozod qilish majburiyatini olishi mumkin. Shartnoma real bitim bo'lishiga qaramay, hadya qiluvchi kelajakda hadya qilish majburiyatini ham olishi mumkin. Ammo har qanday holatda ham hadya shartnomasi tuzildi, deb hisoblanmaydi: agar ashyo yoki huquq muqobil tarzda berilsa yoki muqobil majburiyat mavjud bo'lsa, bunday bitim hadya sifatida tan olinmaydi.

Hadya shartnomasi ayrim huquqiy jihatlari bilan boshqa shartnomalardan farqlanadi. Bu farqlar ularning haqiqiy sanalishini baholashda ham aks etadi. Umumiy bitimlar uchun qo'yiladigan talablar bilan birga, hadya shartnomasida, birinchidan, hadya sifatida berilayotgan ashyo, mulkiy huquq yoki majburiyatdan ozod qilish mazmuni aniq ko'rsatilishi zarur. Ikkinchidan, hadya predmeti hadya qiluvchining tirikligida hadya oluvchiga topshirilishi shart. Shuningdek, hadya shartnomasi oddiy yozma shaklda tuziladi, ko'chmas mulk hadya qilinayotgan bo'lsa, u notarial tasdiqdan o'tishi va davlat ro'yxatiga olinishi lozim.

Hadya oluvchi hadya topshirilgunga qadar uni istalgan paytda rad etish huquqiga ega bo'lib, bunda shartnoma bekor qilingan hisoblanadi. Agar hadya shartnomasi yozma tarzda tuzilgan bo'lsa, rad etish ham yozma shaklda rasmiylashtiriladi. Shartnoma davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lsa, hadyani qabul qilishdan voz kechish ham ro'yxatdan o'tkazilishi shart bo'ladi.

Har bir shaxs o'z mol-mulkini, uning tarkibi va joylashganidan qat'i nazar, xohlagan shaxsiga hadya qilishi yoki vasiyat qilib qoldirishi mumkin. Hadya shartnomasiga muvofiq bir tomon (hadya qiluvchi) ikkinchi tomonga (hadya oluvchi) ashyoni tekin ravishda mulk sifatida beradi¹.

Fuqarolik qonunchiligi hadyaning hadya qiluvchi vafotidan keyin topshirilishini nazarda tutuvchi shartnomalarni haqiqiy deb tan olmaydi. Bunday holatlarda hadya emas, balki vasiyatnoma qoidalari qo'llanadi. Hadyaning vasiyatnomadan farqi shundaki, mulk hadya qiluvchining hayotligida topshiriladi, vasiyatnomada esa shaxsning mulkiy huquqlari faqat uning vafotidan keyin kuchga kiradi. Vasiyatnoma o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin, hadya esa odatda qaytarilmaydi. Hadya shartnoma shaklida tuzilsa, vasiyatnoma odatda bir tomonlama bitim sifatida qaraladi.

Hadya — fuqarolik huquqida bir shaxsning o'ziga tegishli mulkni boshqa shaxsga tekinga berishi haqida tuziladigan shartnomadir. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, agar bir shaxs tomonidan muayyan shaxsga ashyo yoki mulkiy huquqni tekin berish, yoki uni mulkiy majburiyatdan ozod qilish va'dasi belgilangan shaklda ifodalangan bo'lsa hamda bu va'da kelajakda aniq shaxs foydasiga bepul mulk berish yoki uni majburiyatdan ozod qilish niyatini ravshan ko'rsatsa, bunday va'da hadya shartnomasi deb e'tirof etiladi. Ammo hadya sifatida beriladigan ashyo, mulk huquqi yoki majburiyatdan ozod qilish aniq ko'rsatilmasdan, faqat mol-mulkning umumiy qismi yoki hammasini tekinga berish va'dasi berilgan bo'lsa, bunday va'da yuridik jihatdan haqiqiy emas. Shuningdek, hadyaning hadya qiluvchi vafotidan keyin topshirilishini nazarda tutuvchi bitim ham haqiqiy hadya shartnomasi sifatida tan olinmaydi.

Hadya qilish jarayoni, ya'ni sovg'ani bevosita topshirish, oddiy hollarda og'zaki ravishda yoki huquqni tasdiqlovchi hujjatlarni berish orqali yozma shaklda amalga oshirilishi mumkin. Biroq ko'chmas mulk hamda avtotransport vositalarini hadya qilish shartnomasi albatta notarial tartibda tasdiqlanishi va davlat ro'yxatiga olinishi shart.

Umumfoydali maqsadlar yo'lida berilgan hadya xayr-ehson deb ataladi. Xayr-ehson fuqarolarga, shuningdek, davolash, tarbiya, ijtimoiy himoya, xayriya tashkilotlari, ilmiy va ta'lim muassasalari, fondlar, muzeylar, madaniy maskanlar va boshqa jamoat birlashmalariga ham berilishi mumkin. Bunda xayr-ehson qiluvchi shaxs mulkni fuqaroga berganida, ushbu mulkdan ma'lum bir maqsadda foydalanish talabini belgilashi mumkin².

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksida 502-modda. Hadya shartnomasi tushunchasi keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, hadya shartnomasiga muvofiq bir taraf (hadya qiluvchi) boshqa taraf (hadya oluvchi)ga ashyoni tekinga mulk qilib beradi yoki berish majburiyatini oladi yoxud unga o'ziga yoki uchinchi shaxsga nisbatan mulk huquqi (talabi)ni beradi yo berish majburiyatini oladi, yoxud uni o'zi yoki uchinchi shaxs oldidagi mulkiy majburiyatdan ozod qiladi yoki ozod qilish majburiyatini oladi.

Ashyo yoki huquq muqobil berilganida yo bo'lmasa, muqobil majburiyat mavjud bo'lganida shartnoma hadya deb tan olinmaydi. Bunday shartnomaga nisbatan ushbu Kodeks 124-moddasining ikkinchi qismi qoidalari qo'llanadi.

¹ <https://qoraqalpoq.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=47442>

² Hadya – Vikipediya <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Hadya>

Biron-bir shaxsga ashyoni yoki mulk huquqini tekinga berishni yoki biron-bir shaxsni mulkiy majburiyatdan ozod etishni va'da qilish (hadya etishni va'da qilish), agar va'da tegishli shaklda berilgan bo'lsa va kelajakda aniq shaxsga ashyo yoki mulkiy huquqni tekinga berish yoki uni mulkiy majburiyatdan ozod qilish maqsadi aniq ko'rinib turgan bo'lsa, hadya shartnomasi deb tan olinadi.

Ashyo, mulk huquqi yoki mulkiy majburiyatdan ozod qilish shaklida hadya narsasini aniq ko'rsatmasdan o'zining mol-mulkini yoki mol-mulkning bir qismini hadya etishni va'da qilish o'z-o'zidan haqiqiy emas.

Hadyani hadya oluvchiga hadya qiluvchining vafotidan keyin topshirishni nazarda tutuvchi shartnoma o'z-o'zidan haqiqiy emas. Bunday hadyaga nisbatan ushbu Kodeksning vorislik to'g'risidagi qoidalari qo'llanadi.

Hadya shartnomasi — bu bir taraf (hadya qiluvchi) o'z ixtiyori bilan boshqa tarafga (hadya oluvchi) biror narsani tekinga beradigan yoki berishga majburiyat oladigan shartnomadir.

Ya'ni, bu shartnomada hech qanday haq yoki muqobil to'lov bo'lmaydi. Hadya qiluvchi shaxs hech qanday foyda kutmay, o'z mol-mulkini yoki huquqini boshqaga beradi.

Hadya quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- 1.Ashyo (masalan, uy, mashina, telefon va boshqalar) tekinga berilishi.
- 2.Mulk huquqi yoki talab huquqini boshqa shaxsga o'tkazish (masalan, hadya qiluvchi biror shaxsdan undiradigan pulni hadya oluvchiga o'tkazadi).
- 3.Mulkiy majburiyatdan ozod qilish (masalan, hadya qiluvchi hadya oluvchining qarzini kechiradi).

Hadya shartnomasining shartlari:

Agar hadya muqobil tarzda, ya'ni evaziga boshqa bir narsa yoki majburiyat bilan amalga oshirilsa, bu hadya shartnomasi hisoblanmaydi.(Bunday holatda bu boshqa turdagi shartnoma — masalan, almashuv yoki oldi-sotdi deb qaraladi.) Agar kimdir "men senga kelajakda biror narsani hadya qilaman" desa, bu hadya va'dasi bo'lishi mumkin. Lekin bu va'da haqiqiy hisoblanishi uchun: u tegishli huquqiy shaklda tuzilgan bo'lishi kerak (yozma shaklda); va'dada aniq shaxs va aniq ashyo ko'rsatilgan bo'lishi kerak.³

Quyidagi holatlarda hadya shartnomasi haqiqiy emas (yaroqsiz) deb hisoblanadi:

1.Agar hadya qiluvchi o'z mol-mulkini aniq ko'rsatmasdan, faqat "mol-mulkimning bir qismini hadya qilaman" desa — bu shartnoma yaroqsiz.

2.Agar hadya hadya qiluvchining o'limidan keyin topshirilishi nazarda tutilgan bo'lsa — bu ham haqiqiy emas, chunki bunday holatda bu meros (vorislik) munosabatlariga kiradi.

Fuqarolik kodeksining 503-moddasi hadya oluvchining huquqlari va hadya shartnomasining bekor bo'lish tartibini belgilaydi.Ya'ni, bu modda shuni ko'rsatadiki — hadya oluvchi shaxs o'ziga berilayotgan hadyani qabul qilishga majbur emas. U istagan vaqtda bundan voz kechish (rad etish) huquqiga ega.

Hadya oluvchi o'ziga hadya topshirilgunga qadar istagan vaqtda uni rad etishga haqli. Bunday holda hadya shartnomasi bekor qilingan hisoblanadi.Bu degani — agar hadya hali topshirilmagan bo'lsa (masalan, mulk hali o'tkazilmagan, hujjatlar berilmagan), hadya oluvchi xohlagan paytda uni qabul qilmaslikni tanlashi mumkin. Natijada, shartnoma bekor qilingan (yo'qqa chiqarilgan) hisoblanadi.Ya'ni, hadya qiluvchi endi uni berishga majbur emas, hadya oluvchi esa hech narsa olishga haqli emas.

Agar hadya shartnomasi yozma shaklda tuzilgan bo'lsa, hadyani rad etish ham yozma shaklda amalga oshirilishi kerak. Agar hadya shartnomasi ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, hadyani qabul qilishni rad etish ham davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.Bu norma shaklga muvofiqlik tamoyiliga asoslanadi.Agar hadya yozma shaklda tuzilgan bo'lsa — uni rad etish ham yozma

³ Hadya shartnomasi haqida Civil.uz <https://civil.uz/hadya-shartnomasi-haqida/>

shaklda bo'lishi kerak. Agar hadya davlat ro'yxatidan o'tkazilgan (masalan, ko'chmas mulk hadya qilingan) bo'lsa, rad etish ham davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart. Bu rasmiy tartib — huquqiy aniqlik va shaffoflikni ta'minlash uchun kerak.

Agar hadya shartnomasi yozma shaklda tuzilgan bo'lsa, hadya qiluvchi hadya oluvchidan hadyani olishni rad etishi oqibatida yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilishga haqli. Bu qismda hadya qiluvchining manfaatlari himoya qilinadi. Agar hadya shartnomasi yozma shaklda bo'lsa va hadya oluvchi so'nggi paytda hadyani qabul qilmasligini aytsa, hadya qiluvchi bundan ko'rgan zararini (masalan, tashish, rasmiylashtirish xarajatlari, transport xarajatlari) qoplashni talab qilishi mumkin. Bunda faqat haqiqiy zarar (real yo'qotish) qoplab beriladi, foyda yo'qotilishi (boy berilgan foyda) hisobga olinmaydi⁴.

504-modda. Hadya shartnomasining shakli keltirilgan, unga ko'ra, og'zaki yoki yozma shaklda, shuningdek qachon notarial tasdiq yoki davlat ro'yxati talab etilishi haqida aniq tartiblarni belgilaydi.

Hadya qilish, ayni paytda hadyani hadya oluvchiga topshirish og'zaki amalga oshirilishi mumkin, ushbu moddaning uchinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Agar hadya berish bir vaqtning o'zida amalga oshirilayotgan bo'lsa (masalan, biror kishi boshqasiga telefon yoki kitobni sovg'a qilsa), bu og'zaki shaklda ham yaroqli hisoblanadi. Ya'ni, yozma shartnoma tuzish shart emas. Ammo, ba'zi maxsus hollarda (quyida keltirilgan 3- va 5-qismlarda) yozma shakl majburiy bo'ladi.

Hadyani topshirish uni taqdim qilish, ramziy topshirish (kalit va hokazolarni taqdim qilish) yoki huquqni belgilaydigan hujjatlarni taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Hadya topshirish faqat jismoniy buyumni qo'ldan berish bilangina emas, balki: Ramziy topshirish (masalan, mashinaning kalitini berish); Huquqni ifodalovchi hujjatlarni berish (masalan, avtomobil texnik pasporti, aksiyalar sertifikat, huquq guvohnomasi) orqali ham amalga oshiriladi. Bu — mulkni topshirish faktini isbotlaydigan huquqiy holatdir.

Quyidagi holda yozma shakl zarur bo'ladi, ko'char mulkni hadya qilish shartnomasi: hadya qiluvchi yuridik shaxs bo'lganida; fuqarolar o'rtasida bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan ortiq summaga shartnoma tuzilayotganda; shartnomada kelajakda hadya etish va'da qilingan hollarda — oddiy yozma shaklda tuzilishi lozim.

Bu holatlar hadya shartnomasining og'zaki emas, yozma shaklda tuzilishi kerakligini bildiradi. Ya'ni yozma shakl majburiy bo'ladigan holatlar:

1. Hadya qiluvchi yuridik shaxs bo'lsa (masalan, korxona, tashkilot, MChJ);
2. Fuqarolar o'rtasida hadya qiymati bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) 10 baravaridan oshsa (ya'ni yirik qiymatdagi hadya bo'lsa);
3. Hadya kelajakda berilishi haqida va'da qilingan bo'lsa (ya'ni hozir emas, keyin beriladi).

Og'zaki shaklda tuzilgan shartnoma haqiqiy emasligi:

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollarda og'zaki tuzilgan hadya shartnomasi o'z-o'zidan haqiqiy emas. Ya'ni yuqoridagi uch holatdan birortasi mavjud bo'lsa (masalan, yuridik shaxs hadya qilsa yoki hadya qiymati katta bo'lsa), agar shartnoma og'zaki tuzilgan bo'lsa, u yaroqsiz (haqiqiy emas) deb hisoblanadi. Bu qonuniy talab — shartnoma ishonchliligi va huquqiy aniqlikni ta'minlash uchun kiritilgan.

⁴ <https://zarnews.uz/uz/post/hadya-shartnomasi-nima-va-u-qanday-tuziladi>

Ko'chmas mulkni hadya qilish tartibi. Ko'chmas mulkni hadya qilish shartnomasi notarial tasdiqlanishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim. Agar hadya ko'chmas mulkka (masalan, uy, yer uchastkasi, bino, kvartira) tegishli bo'lsa: shartnoma notarius tomonidan tasdiqlanishi kerak; davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart (davlat kadastr organida). Bu — ko'chmas mulkka egalik huquqini qonuniy tarzda o'tkazishning yagona yo'lidir.

Avtotransport vositalarini hadya qilish. Davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lgan avtomototransport vositalarini hadya qilish shartnomasi notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak. Mashinalar, mototsikllar va boshqa transport vositalari davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan ko'char mulk hisoblanadi. Shuning uchun, ularni hadya qilish shartnomasi ham notarial tartibda tasdiqlanishi majburiy. Bu tartib shartnomani soxtalashtirish yoki firibgarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Hadya oluvchi hadya qiluvchining, uning oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlarining hayoti yoki sog'lig'iga qarshi ataylab jinoyat sodir qilgan hollarda hadyani bekor qilishga sud tartibida yo'l qo'yiladi. Hadya oluvchi hadya qiluvchini qasddan o'ldirgan taqdirda, hadya qiluvchining vorislari sudda hadyani bekor qilinishini talab etish huquqiga ega. Agar hadya oluvchining hadya qiluvchi uchun katta nomulkiy qiymatga ega bo'lgan hadya buyumiga nisbatan muomalasi uning butunlay yo'q bo'lib ketishi xavfini tug'dirsa, hadya qiluvchi hadyani bekor etilishini sud tartibida talab qilishga haqli hisoblanadilar.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi 505-moddasida hadya shartnomasini tuzishda amal qilinishi lozim bo'lgan cheklovlarni belgilaydi. Unda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan hadya qilinadigan mol-mulk yoki huquqlarning doirasi, ularni hadya qilish shartlari hamda ruxsat talab etiladigan holatlar ko'rsatib o'tilgan. Yuridik shaxslar o'zlariga operativ boshqaruv huquqi asosida tegishli bo'lgan ashyolarni faqat mulkdorning roziligi bilan hadya etishlari mumkin, biroq bu cheklov qiymati katta bo'lmagan oddiy sovg'alarga taalluqli emas. Umumiy birgalikdagi mulkni hadya qilish esa faqat barcha mulkdorlarning roziligi bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, uchinchi shaxsdan talab qilish huquqini, ijara huquqini yoki boshqa ashyoviy huquqlarni hadya qilishda tegishli qonun moddalari bilan belgilangan tartiblarga rioya etilishi shart. Hadya qiluvchi tomonidan hadya oluvchining uchinchi shaxs oldidagi majburiyatini bajarish yoki hadya oluvchining qarzini o'z zimmasiga olish ham hadya sifatida e'tirof etiladi, ammo bu holatlar ham faqat qonun belgilagan tartibda bo'lishi kerak. Bundan tashqari, agar hadya ishonchnoma orqali amalga oshirilsa, unda hadya oluvchi va hadya qilinayotgan narsa aniq ko'rsatilmagan bo'lsa, bunday ishonchnoma haqiqiy emas deb topiladi. Umuman olganda, 505-modda hadya munosabatlarini tartibga solish orqali mulk huquqlarining asossiz o'tib ketishini oldini olish, taraflar manfaatlarini himoya qilish va shartnoma barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.⁵

506-modda hadya qiluvchining shartnomani bajarishdan bosh tortish huquqini nazarda tutadi. Agar shartnoma tuzilganidan keyin hadya qiluvchining moliyaviy ahvoli jiddiy yomonlashsa yoki 507-moddada ko'rsatilgan holatlar yuz bersa, u hadya obyekti yoki mulk huquqini topshirish majburiyatidan voz kechishga haqli bo'ladi. Bunda hadya oluvchi bunday bosh tortish oqibatida yetkazilgan zararni qoplashni talab qila olmaydi. Bu norma hadya qiluvchini ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan himoya qilishga qaratilgan.

507-modda esa hadya shartnomasini bekor qilish asoslarini belgilaydi. Agar hadya oluvchi hadya qiluvchiga, uning oila a'zolariga yoki yaqin qarindoshlariga nisbatan ataylab jinoyat sodir etsa, hadya sud tartibida bekor qilinadi. Hadya oluvchi hadya qiluvchini qasddan

⁵ Abduraimov Q.X., To'laganov X.T. **Fuqarolik huquqi**. 1–2 qismlar. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.

o'ldirgan taqdirda esa bu huquq hadya qiluvchining vorislariga o'tadi. Shuningdek, agar hadya oluvchi hadya qilingan buyumni shunday tarzda ishlatga yoki unga munosabatda bo'lsa-ki, bu buyumning yo'qolish xavfini tug'dirsa, hadya qiluvchi sud orqali hadyani bekor qilishni talab qilishi mumkin. Bundan tashqari, agar yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs o'zining to'lovga qobiliyatsizlik holatida bo'la turib, bankrotlikdan oldingi bir yil ichida o'z mulkini hadya qilgan bo'lsa, manfaatdor shaxslar bunday hadyani sud orqali bekor qilishni talab etishlari mumkin.

Shartnomada, agar hadya oluvchi hadya qiluvchidan oldin vafot etsa, hadya qiluvchiga hadyani bekor qilish huquqi berilishi ham mumkin. Hadiya bekor qilingach, hadya oluvchi hadya qilingan narsani asl holatida saqlanib turgan bo'lsa, qaytarishi shart. Umuman olganda, 506–507-moddalar hadya shartnomasining ixtiyoriylik, adolat va taraflarning manfaatlarini himoya qilish tamoyillarini mustahkamlab, hadya munosabatlarida muvozanat va huquqiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Hadya shartnomasining bajarilishi, bekor qilinishi, hadya qilingan mol-mulkdagi kamchiliklar oqibatlarini hamda vorislik bilan bog'liq masalalarni tartibga soladi. 508-modda shuni belgilaydiki, hadya shartnomasini bajarishdan bosh tortish yoki hadyani bekor qilish haqidagi qoidalar faqat yozma shaklda tuzilgan shartnomalarga tatbiq etiladi. Ya'ni, og'zaki tuzilgan hadya shartnomalari bo'yicha bu qoidalar amal qilmaydi. Bu norma og'zaki bitimlarning isboti murakkabligi sababli, ularni sud tartibida bekor qilish yoki bajarishdan bosh tortish imkoniyatini cheklaydi.

509-modda esa hadya qilingan mol-mulkdagi kamchiliklar uchun javobgarlikni belgilaydi. Agar hadya qiluvchi hadya qilayotgan ashyoda hayot, sog'liq yoki mol-mulkka zarar yetkazishi mumkin bo'lgan kamchilik mavjudligini bilgan bo'lsa, lekin hadya oluvchini bu haqda ogohlantirmagan bo'lsa, u holda yetkazilgan zarar Fuqarolik kodeksining 57-bobi (zarar yetkazganlik uchun javobgarlik qoidalari) asosida hadya qiluvchi tomonidan qoplanadi. Bu norma hadya qiluvchining mas'uliyatini belgilab, hadya oluvchining xavfsizligini himoya qilishga qaratilgan.

510-modda hadya shartnomasidagi huquqiy vorislik masalasini tartibga soladi. Agar hadya hali amalga oshirilmagan, faqat va'da qilingan bo'lsa, bunday va'dadan kelib chiqadigan huquqlar odatda hadya oluvchining merosxo'rlariga o'tmaydi, ya'ni hadya faqat u yashayotgan paytda kuchga ega bo'ladi. Shu bilan birga, hadya berishni va'da qilgan shaxsning majburiyatlari esa, agar shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, uning merosxo'rlariga o'tadi.

Umuman olganda, 508–510-moddalar hadya munosabatlarida taraflarning javobgarligi, bitim shaklining ahamiyati va meros huquqi bilan bog'liq muvozanatni ta'minlaydi hamda hadya shartnomasining barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlaydi.⁶

XULOSA:

Hadya shartnomasi fuqarolik-huquqiy munosabatlarning muhim institutlaridan biri bo'lib, u shaxslarning mol-mulkka egalik qilish, tasarruf etish va foydalanish huquqlarini bepul asosda o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Ushbu shartnoma fuqarolik muomalasida insoniylik, saxovat va ijtimoiy birdamlik tamoyillarini ifodalovchi huquqiy vosita hisoblanadi.

Hadya shartnomasi o'z tabiatiga ko'ra bepul bitim bo'lib, unda hadya beruvchi o'z ixtiyori bilan mol-mulknii hadya oluvchiga tekinga beradi. Bu esa tomonlarning huquqiy holatini boshqa turdagi shartnomalardan farqlaydi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining

⁶ 29.08.1996. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism) <https://lex.uz/docs/-180552>

tegishli moddalari bilan hadya shartnomasining tuzilishi, shakli, bekor qilinishi hamda haqiqiy emas deb topish asoslari aniq belgilab qo'yilgan.

Shartnomaning huquqiy mohiyatidan ko'rinadiki, u faqatgina iqtisodiy manfaatni emas, balki shaxslar o'rtasidagi ma'naviy-axloqiy munosabatlarni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Shu bois, hadya shartnomasi nafaqat fuqarolik muomalasining huquqiy shakli, balki jamiyatda o'zaro hurmat, ishonch va saxovatni qaror toptiruvchi ijtimoiy institut sifatida ham e'tirof etiladi.

Xulosa qilib aytganda, hadya shartnomasining to'g'ri huquqiy tartibga solinishi, taraflarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilab berilishi fuqarolik muomalasining barqarorligini ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, mulk huquqining daxlsizligi, qonun ustuvorligi va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://qoraqalpoq.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=47442>
2. Hadya – Vikipediya <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Hadya>
3. Hadya shartnomasi haqida Civil.uz <https://civil.uz/hadya-shartnomasi-haqida/>
4. <https://zarnews.uz/uz/post/hadya-shartnomasi-nima-va-u-qanday-tuziladi>
5. Abduraimov Q.X., To'laganov X.T. **Fuqarolik huquqi**. 1–2 qismlar. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.
6. 29.08.1996. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism) <https://lex.uz/docs/-180552>

INNOVATIVE
ACADEMY